



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ungarov Baxtiyor Hayitovich<sup>1</sup>, Xujanova Iroda<sup>2</sup>

<sup>1</sup>NavDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi

<sup>2</sup>Navoiy shahar 12-IDUM o'qituvchisi

### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada masofaviy ta'lim texnologiyalarida o'qituvchi va o'quvchining munosabati va o'zlashtirishni aniqlash usullari keltirilib o'tilgan. Bundan tashqari masofaviy o'qitishning hozirgi holati va muammolari, masofaviy kurslarni yaratishning kontseptual asoslari ko'rib chiqilgan.

#### Abstract

Methods are given in this final work definition of technology of distatsionny training and relationship of the teacher and students. In addition in work problems of distance learning and conceptual bases of creation of remote courses are considered.

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены методы взаимоотношения учителя и ученика и определения успеваемости в технологии дистанционного обучения. А также рассмотрены его современное состояние и проблемы концептуальной основы.

**Tayanch so'zlar:** tafakkur, masofaviy ta'lim, konsepsiya, masala, internet, texnologik, boshlang'ich ta'lim.

**Ключевые слова:** мышления, дистанционное обучение, концепция, задача, интернет, технологик, начальное обучения.



**Key words:** thinking, distance learning, concept, problem, internet, technology, primary education.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (29.04.2019 yildagi PF-5712-son) qabul qilindi. [1:- B. 1].

Konsepsiya xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Jumladan konsepsiyada O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab o'tilgan.

Ushbu vazifalarning ijrosini taminlash maqsadida mamalakatimiz ta'lim tizimida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqdaki bundan ko'zlangan asosiy maqsad kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni har tomonlama bilimli va salohiyatli qilib tarbiyalashdan iboratdir. O'qitishda masofaviy ta'limni tashkil etish va undan foydalanish talim sohasida ijobiy natijalarga erishishning muhim omillaridan biridir.

Masofaviy ta'lim tizmi tarixidan ma'lumki 1873 yilda nogiron vat a'lim muassasalariga kela olmaydigan bolalarni o'qitish uchun amerikalik olim Anna Tiknor Boston universiteti tipida xonadonlarda o'qitish jamiyatini tashkil etdi. Ushbu usul takomillashib keyinchalik ARPANET tashkil topgach, 1991 yilda universitetlar masovali o'qitishni ilmiy daraja berish uchun qabul qilishdi.

UNESKO tomonidan 2002 yil masofali o'qitishning sakkizta (yagonalik, ikkilanganlik, aralash, konsorsium, franchayzing, validatsiya, uzoqlashtirilgan auditoriyalar, loyihalar) modellari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. [2: - B. 51].

Masofaviy ta'limni tashkil etish imkoniyati Internetning paydo bo'lishi bilan mumkin bo'ldi. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni onlayn va darsliklar, darslarning video yozuvlari va boshqa virtual o'quv materiallari yordamida oladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi umuman ta'lim sohasiga, xususan, maktabda masofaviy ta'limga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi va o'qituvchining "jonli" o'zaro muloqoti juda muhim, ammo zamonaviy dunyoda masofaviy ta'limsiz buni amalga oshirish mumkin emas. Buning bir qancha sababalari mavjud:

- O'quvchining sog'ligida kundalik yoki mavsumiy muammolar bo'lganda mashg'ulotlarga ishtirok eta olmasligi mumkin (pandemiya davri);

- Jismoniy imkoniyati qisman cheklangan o'quvchilarda davomat masalasida muammo bo'lishi mumkin;

- Tabiiy ofatlar (harratning keskin ko'tarilishi, kuchli shamollar, kuchli yog'ingarchilik, haroratning keskin pasayishi.....) sababli mashg'ulotlarga qatnashmaslik;

- Oilaviy sharoit tufayli mashgʻulotlarga qatnashmaslik va.h.k

Ushbu omillar sababli hosil boʻlgan muammolarni ijobiy hal etish masofaviy taʼlimning zarur ekanligidan dalolat beradi. Masofaviy taʼlimni tashkil etish jadval asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Masofaviy taʼlim jadvali har bir oʻquvchiga moslashtirilishi va sharoitga qarab oʻzgartirilishi mumkin. Shu bilan birga, oʻquv dasturi moslashuvchan boʻlishi va oʻquvchining maʼlumotni idrok etish tezligi, boshlangʻich tayyorgarlik darajasi, oʻrganish motivatsiyasi, materialni idrok etishning u yoki bu shakliga moyilligi kabi xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning ijodiy quvvatini rivojlantirish bir muncha qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham oʻquvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish samaradorlikka erishish imkonini beradi. [3: - B. 19].

Internetning rivojlanishi katta hajmdagi oʻquv materiallariga kirishni soddalashtirdi. Va bu ham texnologik taraqqiyotning koʻrinishlaridan biridir. Baʼzi oʻquvchilar har kuni yoʻlda oʻtkazadigan vaqtlarini tejashlari mumkin, baʼzilari hatto boshqa hududlarda joylashgan maktabda oʻqishlari mumkin. Bosma oʻquv materialini elektronga almashtirishning oʻzi ham katta mablagʻni tejaydi.

Masofaviy taʼlimning afzalliklari:

- Oʻzingiz uchun qulay vaqtda, qulay joyda va surʼatda oʻqish imkoniyati.
- Kasbiy faoliyatga parallel ravishda oʻqitish.
- Oʻquv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining eng soʻnggi yutuqlaridan foydalanish.
- Oʻquvchining yashash joyi, sogʻligʻi, moddiy taʼminlanishidan qatʼi nazar, taʼlim olish uchun teng imkoniyatlar

Boshlangʻich taʼlimning vazifalaridan biri oʻquvchilarni jamiyatga foyda keltirishga, ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga intilish tuygʻularini tarbiyalashdan iboratdir. Shuningdek boshlangʻich sinfda matematika oʻqitish jarayonida nazariy bilimlarni ongli ravishda chuqur egallash koʻzda tutiladi, chunki buningsiz matematik faktlarning amalaiy masalalarini oʻrganishga qoʻllanilishi haqida ijobiy fikr bildirish mumkin emas. [5: - B. 49].

Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarni tafakkur qilishga va mantiqiy fikrlashga oʻrgatish samarali natijalar berishi koʻplab mutafakkirlar tomonidan taʼkidlab oʻtilgan. Jumladan buyuk mutafakkir Farobiy ham ilmga intilganlarni koʻr-koʻrona ishonchga, quruq yodlashga asoslangan aqidalar oʻrniga, aqliy, mantiqiy bilim usullari bilan qurollantirishga harakat qildi. [4: - B. 68].

Taʼlim jarayonida ijobiylikni taʼminlovchi muhim omillardan biri taʼlimning uzluksizligidir. Ushbu tamoyil ayniqsa boshlangʻich taʼlim uchun muhim hisoblanadi. Boshlangʻich sinfda oʻquvchi yil davomida doimiy ravishda bilim, koʻnikma, malakalarini rivojlantirib borishi lozim. Yozgi taʼlilning davomiyligi bir muncha uzoq muddatga moʻljallangan boʻlib, ushbu vaqt mobaynida oʻquvchilarning aksariyati taʼlim bilan shugʻullanmasligi mumkin. Bu esa oʻz navbatida oʻquvchilar bilimining sayozlashuviga, qiziqishining susayishiga sabab boʻladi. Chunki bu paytda oʻquvchilar doimiy ravishda oʻqituvchilar nazoratida boʻlmaydilar.



Boshlang'ich ta'lim matematika o'qitish jarayonida ushbu muammoni ijobiy hal etish uchun aynan o'qitishning masofaviy ta'lim shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Izchillik bilan mulohaza yuritar ekanmiz boshlang'ich matematika o'qitish jarayonida uzluksizlik ham nazariy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir, chunki boshlang'ich sinfda ijodiy tafakkur o'zining samaradorligi, dolzarbligi va universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi.

Bizga ma'lumki matematika fani doimiy izlanishni, uzluksizlikni, ijodiy tafakkur qilishni talab qiladi. Tatil paytida ham o'quvchilarning bilim o'zlashtirish bilan shug'ullanishlari uchun boshlang'ich matematika o'qitish jarayoniga oid bazi tavsiyalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

4-sinf matematika darsligida mavzulashtirilgan masalalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Darslikdagi masalalarga nisbatan qo'shimcha topshiriqlar tizmini ishlab chiqish va ta'til paytida masofaviy ta'lim orqali o'quvchilarga tavsiya etish mumkin va bu ijobiy natijalar beradi.

“Pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalari” mavzusiga oid 4-masalani qarab chiqaylik. (4-sinf “Matematika” darsligi. T-2020 “O'qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi.)

**4-masala.** Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar kam ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?

Ushbu masalaning yechimi dars vaqtida batafsil ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning masalaga oid bilimlarini mustahkamlash, o'tilganlarni takrorlash maqsadida masalaga bog'liq quyidagi topshiriqlarni masofaviy ta'lim orqali qo'shimcha tarzda berish mumkin:

1)Ushbu masalaga teskari masala tuzing.

Namuna: Bosmaxonada jami 594 nafar kishi ishlaydi. Agar bosmaxonada 318 nafar erkak ishlasa necha nafar ayol ishlaydi?

2)Ikki savolli masala tuzing.

Namuna: Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar kam ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi? Bosmaxonada erkaklar ayollarga nisbatan necha nafar ko'p?

3)Qo'shimcha savolli masala tuzing.

Namuna: Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar ko'p ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi? Bosmaxonada erkaklar ayollarga nisbatan necha nafar ko'p?

“Birlar, minglar, millionlar sinfi” mavzusiga doir.

**3-masala.** Omborda 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do'konlarga 45 yashik ho'l meva jo'natildi. Omborda necha yashik ho'l meva qolgan?

1)Ushbu masalaga teskari masala tuzing.

Namuna: Omborda 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Omborda 45 yashik ho'l meva qolgan bo'lsa, do'konlarga necha yashik ho'l meva jo'natilgan?.

2)Ikki savolli masala tuzing.



Namuna: Omborda 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do`konlarga 45 yashik ho`l meva jo`natildi. Omborda necha yashik ho`l meva qolgan? Keltirilgan noklar olmalarga nisbatan necha yashik kam?

3)Qo`shimcha savolli masala tuzing.

Namuna: Omborda 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do`konlarga 40 yashik ho`l meva jo`natildi. Omborda necha yashik ho`l meva qolgan?

Ushbu tavsiya etilganlardan ta`til paytida o`qituvchilar masofaviy ta`lim shaklidan foydalangan holda o`quvchilar bilan muloqotni tashkil etishlari o`quvchilarning o`tilganlarni qayta takrorlashi uchun, matematika faniga qiziqishlarini ta`minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o`qituvchi ishni tizimli tashkil etishi, o`quvchilar bilan doimiy ravishda onlayn muloqotda bo`lishi shuningdek o`quvchilarni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari hamda tegishli ko`rsatmalar berib borishlari ijobiy natijalarga erishishlari uchun muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. "O`zbekiston respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (29.04.2019 yildagi PF-5712-son)

2. A.Abdugodirov "Masofaviy o`qitishni tashkil qilish va takomillashtirish" "Pedagogik mahorat" 2007 yil 4-son 51-bet

3. Nurzoda Tosheva "O`quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari" "Pedagogik mahorat" 2011 yil 3-son 19-bet

4. Ungarov Baxtiyor, Eshpo`latov Bobir. "Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish jarayonida masalaga mos izohli matnlardan foydalanish" "Pedagogik mahorat" 2014 yil 1-son 68-bet

5. M.Ahadova. "O`rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga oid ishlari" T-1983 y 49 bet (212 bet)